



## UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARNING INGLIZ TILI DARSLARIDA LEKSIK BOYLIGINI INTERAKTIV O'YINLAR ORQALI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

**Absalamov Xiloliddin Uchkunovich**

*Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada umumta'lim maktablari o'quvchilarining ingliz tili darslarida leksik boyligini interaktiv o'yinlar yordamida shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqotda o'yin texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni, ularning motivatsion va kommunikativ funksiyalari tahlil qilinadi. Muallif interaktiv o'yinlarning o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Maqolada leksik boylikni shakllantirishning bosqichlari, o'yinlar turlari hamda dars jarayonida ularni samarali qo'llash metodikasi bayon etilgan. Shuningdek, raqamli o'yin platformalari (Kahoot, Quizizz, Wordwall) orqali leksik kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ham berilgan.

**Kalit so'zlar:** ingliz tili, leksik boylik, interaktiv o'yinlar, kommunikativ kompetensiya, o'yin texnologiyasi, motivatsiya, raqamli ta'lim.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты формирования лексического запаса учащихся общеобразовательных школ на уроках английского языка с использованием интерактивных игр. В исследовании анализируется роль игровых технологий в учебном процессе, их мотивационные и коммуникативные функции. Автор подчеркивает значение интерактивных игр в развитии у учащихся самостоятельного мышления, творческого подхода и коммуникативных навыков. В статье описаны этапы формирования лексического запаса, виды игр и методика их эффективного применения на уроках. Также даны практические рекомендации по развитию лексической компетенции с использованием цифровых игровых платформ (Kahoot, Quizizz, Wordwall).

**Ключевые слова:** английский язык, лексическое богатство, интерактивные игры, коммуникативная компетенция, игровые технологии, мотивация, цифровое обучение.

**Annotation.** This article explores the theoretical and practical aspects of developing students' lexical competence in English language classes through interactive games in secondary schools. The research analyzes the role of game-based technologies in the learning process, highlighting their motivational and communicative functions. The author emphasizes the importance of interactive games in enhancing students' independent thinking, creativity, and communication skills. The paper presents the stages of vocabulary development, types of games, and methodological approaches to their effective implementation in lessons. Moreover, practical recommendations are provided on improving lexical competence using digital game platforms such as Kahoot, Quizizz, and Wordwall.

**Key words:** English language, lexical competence, interactive games, communicative competence, game-based learning, motivation, digital education.



## KIRISH

Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'rganish har bir insonning zarur hayotiy ehtiyojiga aylanib bormoqda. Ingliz tili — xalqaro muloqot, ilm-fan, texnologiya, biznes va madaniyatlararo aloqa vositasi sifatida insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismiga aylangan. Shu sababli O'zbekiston Respublikasida ham ingliz tilini o'qitish jarayoni davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanmoqda. Umumta'lim maktablarida bu tilni o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini, ya'ni tilni amaliy muloqotda qo'llay olish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir.

Biroq tilni samarali o'rganish uchun grammatik qoidalardan ko'ra, so'z boyligi – ya'ni leksik kompetensiya muhim o'rin tutadi. Chunki tilning lug'at boyligi insonning fikrlash doirasini kengaytiradi, muloqot jarayonida to'g'ri va erkin ifoda imkonini yaratadi. Shuning uchun o'quvchilarda leksik boylikni shakllantirish masalasi zamonaviy til ta'limining markaziy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bu jarayonda interaktiv o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, faol ishtirokini ta'minlaydi va o'rganilgan so'zlarning mustahkam o'zlashtirilishiga yordam beradi.

Leksik boylik — bu shaxsning faol va passiv so'z zaxirasini, ularni turli kommunikativ vaziyatlarda maqsadga muvofiq qo'llay olish qobiliyatini anglatadi. Ingliz tilini o'rgatishda leksik boylikni oshirish o'quvchining nutqiy kompetensiyasini shakllantiradi, ya'ni o'quvchi o'z fikrini ravon, aniq, grammatik jihatdan to'g'ri ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu boisdan leksik material bilan ishlash o'quv jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sanaladi.

Leksik boylikni shakllantirishning samaradorligi o'quvchilarning yosh xususiyatlari, psixologik tayyorgarligi, o'qitish metodlari va o'quv muhitiga bog'liq. Boshlang'ich va o'rta sinf o'quvchilari uchun o'yin metodlari, vizual vositalar, interaktiv mashg'ulotlar, jamoaviy musobaqalar kabi faol ta'lim usullari ayniqsa samarali hisoblanadi. O'yinlar orqali o'rganilgan so'zlar ko'p hollarda tabiiy ravishda yodda qoladi, chunki o'quvchi unda faol qatnashadi, emotsional holatda bo'ladi va harakat orqali so'z ma'nosini amalda his qiladi.

Interaktiv o'yinlar – bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ikki tomonlama faol muloqotni ta'minlovchi, o'quvchini dars jarayonining markaziga olib chiqadigan metodlardan biridir. Ular o'quvchilarni faollikka, ijodkorlikka, mustaqil fikrlashga undaydi. Til o'qitish jarayonida o'yin metodlari o'quvchilarning tabiiy qiziqishiga tayanadi, bu esa o'quv jarayonini majburiylikdan ixtiyoriy faoliyatga aylantiradi.

Ingliz tili leksikasini o'rgatishda qo'llaniladigan interaktiv o'yinlar quyidagi turlarga bo'linadi:



- 1) soʻzlarni topish oʻyinlari (“Word Hunt”, “Crossword”, “Bingo”);
- 2) rolli oʻyinlar (“At the Restaurant”, “Shopping”, “Travelling”);
- 3) kommunikativ musobaqalar (“Who am I?”, “Guess the Word”, “Jeopardy”);
- 4) raqamli interaktiv oʻyinlar (Quizlet, Kahoot, Wordwall).

Har bir oʻyin oʻquvchilarni tilni faol qoʻllashga, nutqiy vaziyatlarni modellashtirishga, yangi soʻzlarni tabiiy muhitda qoʻllashga oʻrgatadi.

Interaktiv oʻyinlar orqali oʻquvchilarning leksik boyligini rivojlantirish bosqichlari quyidagicha boʻlib, oʻyin asosidagi metodik yondashuv uch bosqichda amalga oshiriladi: tayyorgarlik bosqichi, asosiy oʻyin jarayoni va refleksiya (tahlil) bosqichi. Tayyorlov bosqichida oʻqituvchi dars mavzusiga mos oʻyin tanlaydi, oʻyin qoidalari bilan oʻquvchilarni tanishtiradi. Asosiy bosqichda oʻyin jarayoni tashkil qilinadi, oʻquvchilar faol ishtirok etadi. Yakuniy bosqichda oʻqituvchi natijani tahlil qiladi, yangi oʻzlashtirilgan soʻzlar qayta ishlanadi, mustahkamlovchi mashqlar bajariladi. Masalan, “Find Someone Who...” oʻyini orqali oʻquvchilar yangi soʻzlarni real muloqot jarayonida ishlatadilar. “Bingo” oʻyini esa soʻzlarni tinglab va topish orqali eshitish va xotira koʻnikmalarini rivojlantiradi. “Wordwall” platformasi yordamida yaratilgan onlayn oʻyinlar oʻquvchilarni raqamli muhitda ham faol ishtirok etishga jalb qiladi.

Interaktiv oʻyinlarning psixologik va pedagogik afzalliklari shundaki, ular nafaqat leksik boylikni oshiradi, balki oʻquvchilarning psixologik holatini yaxshilaydi, darsga nisbatan ijobiy motivatsiya hosil qiladi. Oʻyin jarayonida raqobat, hamkorlik, ijodkorlik, masʼuliyat va oʻziga ishonch kabi sifatlar rivojlanadi. Shuningdek, oʻyinlar oʻquvchilarni stressdan xoli qiladi, ularni ingliz tilida erkin fikrlashga undaydi. Pedagogik jihatdan esa oʻyinlar oʻqituvchiga oʻquvchilarning individual farqlarini hisobga olish imkonini beradi. Har bir oʻquvchi oʻz qobiliyatiga mos tarzda faol ishtirok etadi. Bu esa darsni differensial yondashuv asosida tashkil etishga xizmat qiladi.

## XULOSA

Xulosa oʻrnida takidla oʻtish joziki, ingliz tili darslarida interaktiv oʻyinlardan foydalanish oʻquvchilarning leksik boyligini rivojlantirishning eng samarali usullaridan biridir. Ular oʻquvchini dars jarayonida faol subʼektga aylantiradi, muloqotga undaydi, til oʻrganishga boʻlgan ichki motivatsiyani oshiradi. Zamonaviy taʼlim texnologiyalarini, ayniqsa raqamli oʻyin platformalarini qoʻllash orqali bu jarayonni yanada qiziqarli va samarali tashkil etish mumkin.

### Foydalangan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarini oʻqitish tizimini takomillashtirish toʻgʻrisida”gi PQ-5117-sonli qarori. – Toshkent, 2021.
2. Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education, 2014.



3. Nation, I. S. P. Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge University Press, 2020.
4. Thornbury, S. How to Teach Vocabulary. Longman, 2002.
5. Oxford, R. Language Learning Strategies: What Every Teacher Should Know. Newbury House, 1990.
6. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching. Pearson Longman, 2015.
7. Jalolova Sh., G'ulomova M., Hasanova A. Ingliz tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 2018.
8. Murodova D. Chet tili darslarida interaktiv metodlardan foydalanish. – Toshkent, 2022.
9. Webb, S. & Nation, P. How Vocabulary is Learned. Oxford University Press, 2017.

